

SINGAPURDAN XUSHXABAR OLDIK



SIMOC

Kuni kecha matematika fani bo'yicha o'tkazilgan «Singapore International Math Olympiad Challenge - 2016» nomli xalqaro olimpiadada o'quvchilarimizning beshta oltin medalni qo'lga kiritgani, eng ulug', eng aziz bayramimiz - Mustaqilligimizning 25 yilligiga munosib tuhfa bo'ldi.

Ushbu bellashuvda dunyoning turli mamlakatlaridagi maktablarda ta'lim olayotgan 780 nafar iqtidorli o'g'il-qizlar qatnashdi. Quvonarlisi, o'zbekistonlik Abdurahim Oripov, Muhammadamin Rahmonberdiyev, Abdulla G'ayratillayev, Marina Ten hamda

Vladislav Galperin xalqaro olimpiadaning g'oliblari safidan o'rin egallashdi. Shuningdek, yana bir necha o'quvchilarimiz kumush, bronza va jamoaviy mukofotlarga sazovor bo'ldi.

G'oliblarni taqdirlash marosimida xalqaro olimpiada tashkilotchilari tomonidan o'zbekistonlik yosh matematiklarga yuqori baho berildi va bundan keyin ham yuksak cho'qqilarni zabt etishlariga ishonch bildirildi.



Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:34 (67095)
2016-yil
22-avgust

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN - 2010-6092

O'zbekiston nomin eshitgach, Dunyo ahli hayratga tushdi



Raqiblarni titratdi mushti,
Alpomishning sheryurak pushti.
O'zbekiston nomin eshitgach,
Dunyo ahli hayratga tushdi.

Sohibqiron ruhi madadkor,
Humo qushi sizga bo'lsin yor.
Adolatning bayrog'in baland,
Ko'tarishga turaylik tayyor.

Bo'sh kelmayin qalbdan topdi joy,
O'zimizning olov Hasanboy.
Oltin olib oqladi burchin,
Maydonlarda ko'rsatdi kuchin.

Qo'li baland, mard o'g'lonlarim,
Ruslan kabi pahlavonlarim.
Yuragimda qaynab turibdi,
Sizga atab, dil dostonlarim.

G'oliblarni qutlaydi har on,
Boshingizda charx urib osmon.
Yo'lingizda charaqlar quyosh,
Peshvoz chiqar hur O'zbekiston.

**BIZ HECH KIMDAN
KAM EMASMIZ**

(7-bet)



**Biz ham
champion
bo'lamiz!**

AXTAMQULI



O'ZBEKISTONLIK BOLALAR GERMANIYADA DAVOLANISHADI

Sog'lom bola sog'lom kelajak demakdir. Shuning uchun xalqimiz azaldan ona va bolaning har tomonlama sog'lom bo'lishiga alohida e'tibor qaratgan.



Bu yilning «Sog'lom ona va bola yili» deb nomlanishi ham shu an'ananing davomiyligini isbotidir. Bundan bir necha yil oldin O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondi hamda Germaniyaning «Friedensdorf

International» xalqaro tashkilotlarining uch tomonlama hamkorlik bitimi imzolangan edi. Loyiha doirasida 12 yoshgacha bo'lgan bemor bolalarning sog'lomlashtirilishi va reabilitatsiya qilinishi ko'zda tutilgandi. 2002–2016-yillar mobaynida 322 nafar o'zbekistonlik bemor bolajonlar terining kuyish asoratlari, tug'ma qo'l-oyoq bo'g'imlari va boshqa tashxislar bilan Germaniyaning nufuzli klinikalarida davolanishgan.

Kuni kecha Toshkent xalqaro aeroportidan yana 16 nafar o'zbekistonlik bolalar fondning vakili hamrohligida Germaniya klinikalarida davolanish uchun jo'nab ketishdi.

OZODA

BAYRAM NAFASI

Marg'ilon shahar «Barkamol avlod» bolalar markazida «Go'zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O'zbekistonim» shiori ostida badiiy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

Unda mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar, bunyodkorlik ishlari, qo'lga kiritilgan yutuqlar, yoshlarga yaratilgan katta imkoniyatlar haqida so'z yuritildi.

Tadbirda markazning hunarmandchilik, bichish-tikish, tasviriy san'at, fotehavaskor hamda yosh ixtirochi kabi to'garak a'zolari tomonidan tayyorlangan buyumlar ko'rgazmasi namoyish etildi. Ko'rik-tanlovlar g'oliblariga faxriy yorliq, diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

Tadbir so'ngida to'garak a'zolari ijrosidagi mumtoz qo'shiqlar, doiraning sho'x navolari, raqqosa qizlarning dilrabo raqslari yig'ilganlarga zavq ulashdi.

**M. MAHMUDOV,
Farg'ona viloyati**

YUKSAK MARRALAR SARI

Toshkent viloyati, Bekobod shahridagi 3-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Ziyoda Shukurova ona tili va adabiyot, ingliz tili, algebra hamda huquq fanlariga juda qiziqadi. Ushbu fanlar bo'yicha o'tkazilgan «Bilimlar bel-lashuvi»ning viloyat bosqichida qatnashib, faxrli o'rinni egalladi. Tengdoshimizning «Kelajakka qadam» deb nomlangan ilk kitobi nashrdan chiqqan. «Yurt kelajagi», «Yuksak ma'naviyatli avlod» yoshlar festivallarining viloyat bosqichi faoliga aylangan bu iste'dodli qiz bo'sh vaqtlarida sportning Turon yakkakurashi turi bilan shug'ullanadi. Murabbiyi Botir aka Eshmurodovning



maslahatlariga amal qilgan Ziyoda bu yil qizil belbog' sohibasiga aylandi.

– Kelgusida halol xizmatim bilan yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shsam, o'zimni baxtiyor sanardim, – deydi Ziyoda.

Biz iste'dodli tengdoshimizning ezgu tilaklari ijobat bo'lishiga tilakdoshmiz.

**Odina SAHOBIDDIN qizi,
Toshkent matbaa-noshirlik kasb-hunar kollejining
1-bosqich o'quvchisi**

MAKTAB YARMARKASI

o'quvchilarni sifatli o'quv anjomlari va bejirim liboslar bilan ta'minlamoqda.

Yangi o'quv yili boshlanishiga ham sanoqli kunlar qolmoqda. Shu bois maktab yarmarkalari har qachongidan ham gavjum.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida jami 1978 ta maktab yarmarkalari tashkil etildi. Unda 26 turdagi zaruriy o'quv qurollari va jihozlari sotuvi yo'lga qo'yilgan bo'lib, mazkur mahsulotlarning aksariyat qismi yurtimizda ishlab chiqarilgan.

– Men bu yil 3-sinfga boraman.

Maktabni, sinfdoshlarim va ustozlarimni juda sog'indim, – deydi poytaxtimizdagi 249-umumta'lim maktabi o'quvchisi Lazizbek Akbarov.

– Maktab yarmarkasiga onam bilan birga bordik. Menga kerak bo'lgan o'quv qurollari va maktab formasini olib berdilar. Menga hammasi juda yoqdi. Xursand bo'lganimdan, ularni quchoqlab oldim va «endi har kuni besh baho olaman», deya onamga so'z berdim.

O'z muxbirimiz

Oila sog'lom bo'lsa, jamiyat sog'lom, mamlakat qudratli, yurt tinch-osoyishta bo'ladi.

Islom KARIMOV

TINCHLIKDAN HAMMA BAXTIYOR



Andijon shahridagi «Tashkilot» ko'chasi-da bir oila bor. Orifjon aka va Nasiba opa Sattorovalar oilasi mahalladagi eng namunali oilalardan biridir. 1975-yili poytaxtda bir oliyog'ohda ta'lim olgan kursdoshlar oila qurishdi. To nafaqaga chiqqunlariga qadar joylarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha faoliyat olib borishdi. Bugungi kunda keksalik gashtini surayotgan baxtli juftlik bir o'g'il va ikki qizni tarbiyalab, voyaga yetkazishdi. Nafisaxon hamshira, Nigora esa hisobchi. Oilaning suyangan tog'i Sherzodbek katta bir tashkilotda yetakchi muhandis. Dam olish kunlari oila a'zolari to'planishganda, hovli nabiralarning qiy-chuviga to'lib ketadi. Mashhur-bek, Abdulloh va Mumtoz-begim shahardagi 30-umumta'lim maktabida o'qishadi. Firdavs bu yil oltiga to'ladi. Imronbek, Munisa va Zubayr hali juda yosh.

Orifjon aka katta nevaralari maktabga ilk qadam qo'ygandan boshlab, qo'llaridan yetaklab maktabda tashkil etilgan sport to'garagiga olib boradi. Mashhur-bek va Abdulloh yunon-rum kurashi bo'yicha qator musobaqalar g'olibi. Quvonarlisi, bu yil Mashhur-bek Andijon olimpiya xazinalari sport maktabining 7-sinfiga qabul qilindi. Firdavs shahardagi 15-maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchisi. U doim «Vatan himoyachisi bo'laman!» deydi, bobosi va huvisiga askarlardek yurishni ko'rsatib beradi.

Ha, bu oilada barcha baxtiyor. Oila a'zolarining to'planishi bayramga aylanib ketadi. Orifjon aka: «Totuvlikda, ahillikda gap ko'p, yurtimiz tinchligi insonlarning hamjihatligida», deyishdan charchamaydi.

Nurbek QIDIRALIYEV



MAKTABIMIZDA VAZIR BILAN UCHRASHUV BO'LDI

Biz baxtlilar ichidagi eng baxtiyor yoshlarmiz. Chunki yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, Yurtboshimiz tomonidan biz yoshlarga keng imkoniyatlar eshigi ochib berilgan.

Ko'rsatilayotgan bu kabi g'amxo'rliklar tufayli yoshlarimiz turli jabhalarda, ayniqsa, sport musobaqalarida o'zlarining nimalarga qodir ekanligini namoyish etmoqda.

Men ham mana 7 yildirki, sportning shotokan karate-do turi bilan shug'ullanib kelmoqdaman. Shu yillar mobaynida ko'plab yutuqlarni qo'lga

kiritdim. Jumladan, 3 karra O'zbekiston chempioni, 3 karra Jahon kubogi va jahon chempionati sovrindori bo'ldim. 2012-yili Toshkent shahrida o'tkazilgan jahon kubogida 2 ta kumush medalini qo'lga kiritgan bo'lsam, 2013-yili Yaponiyaning Tokio shahrida o'tkazilgan dunyo birinchiligida bronza medaliga sazovor bo'ldim.

Yaqinda maktabimizga Xalq ta'limi vaziri Ulug'bek Inoyatov tashrif buyurdi. Ularning kelishlarini eshitib, yoshlar yetakchisi Muhayyo opa Bekmuratova bilan birgalikda «Iste'dodli yoshlar – Vatan kelajagi» nomli adabiy-musiqiy dastur namoyish etdik. Shu o'rinda ular ham «Farzandlarimizning ko'zlaridagi quvonchni ko'rib, umrimiz bekor ketmaganiga shukur qilamiz», degan gaplarni aytib, qalblarimizni quvonch va shodlikka to'ldirdi.

Kelajakda yoshlarga yaratib berilgan imkoniyatlarga javoban sport sohasida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishga va'da beraman.

Mohinur MISKINOVA,
Xorazm viloyati, Gurlan tumanidagi
5-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi



Bizning qishlog'imizdan oqib o'tadigan chashma xalq tilida Qo'tirbuloq ota deb yuritiladi. Uning suvi juda shifobaxsh bo'lib, insonlardagi turli toshmalar, yara-chaqalar va teri kasalliklariga davo bo'ladi.

ONA ZAMIN MO'JIZASI

Buloqning nafaqat suvi, balki loyi ham foydalidir. U malham qilib surilgan joylar tezda dardan forig' bo'ladi.

Qadimgi manbalarda keltirilishicha, chashmaning suvi mashhur Nurota tog' tizmasidagi shifobaxsh buloqlar bilan yerosti suvlari orqali bog'langan ekan. Hattoki, ikki chashmaning baliqlari ham tez-tez almashib turisharkan. Shuning uchun ham bu yer-

dagi aholi chashma baliqlarini ovlamaydilar, ularga ziyon yetkazmaydilar. Ushbu qutlug' go'shani ziyorat qilib turli joylardan mehmonlar keladi. Siz ham qishlog'imizga bir keling. Ana o'shanda o'zingiz ham ona zamin mo'jizalaridan bahramand bo'lasiz.


Farruxjon SAFAROV,
Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi
45-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

MEHMON BO'LING, QASHQADARYODA!

Istiqlol yillarida jonajon Qarshi shahrimizning tanib bo'lmas darajada chiroy ochib borayotgani dillarga huzur baxsh etmoqda.

Ayniqsa, Qashqadaryo ko'prigi manzarali daraxtlar-u gullarga atrofida «Amir Temur sohili» deb burkangan sayilgozda kishilarning miriqib hordiq chiqarishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Quvonarlisi, biz bolajonlar uchun ham turli attraksion o'yin-gohlar tashkil etilgan.

Nasib bo'lsa, biz ham Vatanimiz er-tasining nurlini bo'lishi uchun o'z hissamizni qo'shamiz.



Madinabonu
BOYQOBILOVA,
Qashqadaryo

viloyati, Qarshi shahridagi
5-umumta'lim maktabining
6-«B» sinf o'quvchisi

nomlangan dam olish maskanining bunyod etilishi asrlarga tatigulik xayrli ish bo'ldi. Ko'plab

Mana, aziz o'quvchilar, sizlar bilan yana «Tong yulduzi» a'lochilari» rukni orqali ko'rishib turibmiz. Bizga yuborayotgan maktublaringiz orqali ta'til kunlarini qanday o'tkazayotganingiz, ayniqsa, gazetamiz bo'sh vaqtingizga mazmun baxsh etayotganini o'qib, juda quvondik. Quyida ta'til davomida bizga eng ko'p xat yo'llagan tengdoshlaringiz bilan tanishasiz:

Tong yulduzi

A'LOCHILARI

GULASALNING QUVONCHI



Farg'ona viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasining Beshariq bo'limi maktabida tahsil olayotgan Gulasal G'ayratjonovanning ijodi bilan yaxshi tanishsiz. Ijodkor qizning yanada jo'shqin, yorqinroq she'rilar yozishiga ustoz Ra'noxon Usmonova yaqindan yordam berayotgan ekan. Gulasal gazetamizda chop etilayotgan ertak, hikoyalarni zavq bilan o'qib, boshqotirma va topshiriqlarni zukkolik bilan yechib borayotgani haqida to'lqinlanib yozibdi. Biz esa unga, ijod qilishdan aslo to'xtamang, deymiz.

A'lochilar safida bu gal qizlar peshqadamlik qildi. O'g'il bolalar ham bu borada ildamroq bo'lishsa, foydadan holi bo'lmasdi.

Aziz bolajonlar, biz bilan orzu-intilishlaringiz, qiziqishlaringiz haqida o'rtoqlashing va a'lochilar safidan o'rin oling. Maktublaringizni kutamiz!

Xatlarni OZODA saraladi

SITORANING DO'STI

Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanidagi 63-umumta'lim maktabi o'quvchisi Sitora Abduramonova ham faol gazetxon o'quvchilarimizdan. U geografiyaga qiziqqani bois, bu fanga oid kitoblarni muntazam mutolaa qiladi. Shu bilan

birga, tengdoshingiz ta'til kunlarida ingliz tilini ham puxta o'rganmoqda. Sitora kitob insonning beminnat do'sti ekanligini yaxshi anglagani bois, badiiy asarlarni o'qishni ham kanda qilmaydi.



XIVA TARIXI YOSHLAR NIGOHIDA

Dunyoda faqat uchtagina shaharga «Osmon ostidagi ochiq muzey» maqomi berilgan. Shulardan biri Vatanimizda ekanligi qalbimizda faxr hissini uyg'otadi. Bu shahar haqida xalq orasida turli rivoyatlar, afsonalar yuradi.

Bir zamonlar mazkur kent o'rnida cho'l-u biyobon bo'lgan ekan. Kunlardan bir kuni u yerdan katta karvon o'tib ketayotganda bir quduqqa ko'zlar tushibdi. Tashnalik azobidan qiynalayotgan yo'lovchilar uning suvidan ichib ko'rishibdi. Chanqoqlari bosilgach, «Xe, voh bunchalar shirin suv bo'lmasa», deyishibdi. Shundan so'ng, bu quduqni odamlar «Xevoh» deya atay boshlashibdi. Keyinchalik quduq atrofiga odamlar kelib joylashib, qishloq paydo bo'libdi. Mazkur qishloq ham quduq nomi bilan atala boshlabdi. Vaqt o'tishi bilan, xalq orasida «Xevoh» atamasi «Xiva» tarzida o'zgarib, talaffuz etila boshlanibdi.

Tarixiy manbalarda esa Xivani vujudga kelishi boshqacha talqin etiladi. Unga ko'ra, Xiva Amudaryoning quyi oqimidagi Xeyvak nomli suv havzasi yonida barpo etilganligi sababli shunday



nom bilan atalib kelinadi, deyilgan.

Xorazm viloyatida ijodiy safarda bo'lganimizda, ushbu betakror shaharni ham borib ko'rish, uning obidalari, go'zalligidan bahra olishni niyat qildik.

Ichan qal'aga kirib borganimizda, ayni tush payti, havo issiq bo'lishiga qaramay, odam gavjum edi.

Ayniqsa, maktab o'quvchilarining ko'pligidan quvonib, ularni suhbatga tortdik:

– Shahrimizning hozirgi ko'rinishi XVIII – XX asrlarda Xiva xonligining bunyod etilgan inshootlar bilan shakllangan bo'lsa-da, arxeologik qazishmalar bu kentning yoshi uzoq yillik tarixga ega ekanligini ko'rsatmoqda, – deydi Xiva shahridagi 55-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi, tarix fanidan «Bilimlar bellashuvi»ning viloyat bosqichi g'olibi Bobur Nazarov. U bilan muloqot chog'i maktabdoshlari Doston Ibragimov tasviriy san'at va chizmachilik bo'yicha viloyatda 2-o'rinni, 8-sinf o'quvchisi Shohista Shohnazarova esa ona tili va adabiyot fanidan «Bilimlar bellashuvi»ning viloyat bosqichida 2-o'rinni egallagan haqida bilib oldik.

– Men 26-umumta'lim maktabining 9-sinfini muvaffaqiyatli tamomladim. Tugallangan o'quv yilida huquq fanidan o'tkazilgan fan olimpiadasida viloyatda 1-o'rin, Respublikada esa 3-o'rin sohibasi bo'ldim, – deydi Sultonpochsha Abduraimova.

Xivalik o'quvchilarning faxr-u iftixor bilan so'zlashlaridan biz ham zavqqa to'ldik. Ularning kelajak parvozlariga omad va zafarlar tiladik.

Jamoliddin ABDULLAYEV

KITOBGA MUHABBAT UYG'OTIB...

Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi 27-umumta'lim maktabi Axborot-resurs markazida Mustaqilligimizning 25 yilligiga atab konferensiya bo'lib o'tdi.

Tadbirida pedagog va o'quvchilar mamlakatimizning 25 yillik tarixiga nazar tashlar ekan, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, yoshlarni vatanparvarlik, istiqloq g'oyalari sadoqat ruhida tarbiyalashdek ezgu ishlarga hissa qo'shayotgan fidoyi insonlar haqida so'z yuritdilar. Tadbirida ishtirok etgan mehnat faxriylari – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Xolmirza To'ranov, «Shuhrat» medali sohibasi Gulchehra Egamqulova, «Madaniyat» qishloq fuqarolar yig'ini faollari hamda ota-onalar o'quvchilar tomonidan tayyorlangan stend, fotoalbom va bukletlar bilan yaqindan tanishdilar.

Shuningdek, ARM mudirasi Zuhra Abdurahimova va boshchiligida «Kitob – bilim manbai» mavzusida suhbat o'tkazildi. Unda o'quvchilardan Yulduz Mardig'ulomova, Munisa Olimova va Shahnoza Otamurodova yosh avlod tarbiyasida badiiy, ijtimoiy-siyosiy kitoblarning tutgan o'rni haqida fikrlar bildirishdi. Anjumanda namoyish etilgan «Vatan yagonadir, Vatan bittadir» mavzusida fotoko'rgazma, «Kitob – ulkan mo'jiza» ko'rgazmasi mehmonlarda katta qiziqish uyg'otdi.

Abdulla SAIDOV



«BARKAMOL AVLOD» DA BAYRAM

«Barkamol avlod» Respublika bolalar badiiy ijodiyot markazida Respublikamiz Mustaqilligining 25 yilligiga bag'ishlab, «Go'zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O'zbekistonim!» shiori ostida o'quvchilarning ijodiy ishlari ko'rgazmasi tashkil etildi.

Markazning o'ndan ziyod turli to'garak a'zolari tomonidan tayyorlangan ijodiy ishlardan ko'zimiz quvnadi.

«Yosh doirachilar» to'garagi a'zolari childirmaning sho'x sadolari ostida tadbirni ochib berishdi. Chilonzor tumanidagi 536-maktabgacha ta'lim muassasasining «Istiqloq yulduzchalari» dastasi tarbiyalanuvchilari «Qo'g'irchoq» raqsini ijro etganlarida, gulduros qarsaklar yangradi.

– O'quvchilarimiz bilan «Eng sodda samolyot modellari», «Katapult yordamida uchuvchi samolyot modellari», «Penoplastdan yasalgan planerlar» musobaqasini o'tkazdik. Shuningdek, Dilobar Musajonova rahbarligidagi «Kompyuter saboqlari», Baxtiyor Xo'jayev murabbiyligidagi «Shaxmat-shashka» to'garagi a'zolari

o'rtasida ham bellashuvlar bo'lib o'tdi. Umidjon Xolmirzayevning «Karving» to'garagi a'zolari esa «Yagonasan, muqaddas Vatan» shiori ostida tanlov o'tkazishdi, – deydi ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari Lola To'xtayeva.

– Men Ramazon Tojiyev, Chilonzor tuma-

nidagi 107-umumta'lim maktabining 6-«D» sinfidagi o'qiyman, – deya o'zini tanishtirdi tadbir qatnashchilaridan biri. – Uch yildan beri «Aviamodel» to'garagiga qatnayman. Ustozim Abdunabi aka Hojiboyevdan ko'p minnatdorman.

Men yasagan «Mig-29» nomli modelimni havoda

uchirishni ko'ring.


– Men esa Yunusbek Tohirov bo'laman, – deya suhbatga qo'shildi uning o'rtog'i. – Shu tumanidagi 188-umumta'lim maktabining 6-«A» sinfiga o'tdim. To'garakka a'zo bo'lganimga hali bir yil bo'lmasdi. Lekin men ham samolyot modelini yasashni o'rganib oldim. To'garakdagi mashg'ulotlarimiz juda qiziqarli bo'ladi.

Tadbirida G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ining «Qo'g'irchoq teatri» badiiy jamoasining chiqishlari, o'quvchilar ijrosidagi Vatanni madh etuvchi she'r, qo'shiqlar, «Yosh raqqosa» to'garagi a'zolari ijrosidagi sho'x raqslar kechaga bayramona shukuh baxsh etdi.

Dilorom HOTAMOVA



101-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Madina Azizova ish ustida.



SHAXOBIIDDIN olgan suratlar

SAN'AT VA SPORT ANJUMANI

Ana shunday tadbirlardan biri yaqinda poytaxtimizning G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida ham bo'lib o'tdi. Ushbu san'at va sport bayrami «Biz Istiqlol farzandlarimiz» deb nomlandi.

Markaziy sahnada bayram tantanali tarzda ochib berilgach, bog'ning «Ulug'bek yulduzlari» jamoasi, bolalar dastalari ishtirokida bayramona quvnoq kuy-qo'shiqlar yangradi. Raqqosa qizlar diltortar, sho'x raqslari bilan dillarni zavqqa to'ldirdilar. «Barkamol avlod» Respublika bolalar badiiy ijodiyot markazining «Turon» sport jamoasi, Bektemir bolalar va o'smirlar sport maktabi tarbiyalanuvchilari, u-shu assotsiatsiyasi sportchilarining ko'rgazmali chiqishlari barchada katta taassurot qoldirdi.

Shundan so'ng, armrestling bo'yicha jahon chempioni Jasur Aliakberov boshchiligidagi hakamlar guruhi ishtirokchilarni sport musobaqalarida bellashishga taklif etdi.

Eng ulug', eng aziz bayramimiz munosabati bilan respublikamizning turli go'shalarida ma'naviy-ma'rifiy kechalar, anjumanlar o'tkazilmoqda.

Murosasiz o'tgan bellashuvlarda Xondamir Abduvohidov – 100 metrga yugurish, Kozim Abdurashidov – turnikka tortilish, Javohir Oripov esa armrestling bo'yicha g'olib deb topildilar.

– Men Sevinch Saidkarimova, poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 277-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchisiman, – deya o'zini tanishtirdi o'zbek jang san'ati bo'yicha O'zbekiston chempioni, 22 ta medal sohibasi. – Bektemir tumanidagi 1-bolalar va o'smirlar sport maktabiga qat-



nayman. Murabbiyim Bahodir Nazarov rahbarligida 16 nafar sportchilardan iborat jamoamiz bilan bugungi bayramda ishtirok etmoqdamiz.

– Men Sobirjon Sobitjonov, – deya suhbatga qo'shildi yana bir ishtirokchi. – Uchtepa tumanidagi 116-umumta'lim maktabining 5-sinfiga o'tdim. Men ham armrestling bo'yicha kuchimni sinab ko'rdim va 3-o'rinni egalladim.

O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ushbu tadbir nihoyatda ko'tarinki ruhdagi o'tdi.

Dilorom MUHAMMADJON qizi

LESSON 101


31st of August – the Day of remembrance of prohibition sacrifices

ABDULLA QODIRIY

Abdulla Qodiriy was the founder of Uzbek national proses. He was a journalist, a linguist and a translator. He was born in 1894, April 10 in Tashkent. First he studied at muslim school, then Russian.

Qodiriy's plays especially his novels are famous in the world. His novels as «Mehrobdan chayon», «O'tgan kunlar», «Obid ketmon» were translated into Russian, English, Italian, Arabic, Azarbayjan, Tadjik, Kazak, Uygur and Tatar languages.

After independence the government awarded him the State Prize after Navoi. A lot of cultural organizations, big streets, and park are named after Abdulla Qodiriy.



VERB OR NOUN?


- I **like** your computer. → verb noun
- We live in a small **town**. → verb noun
- They **play** handball. → verb noun
- His **friend** has a pet. → verb noun
- I **go** to bed at 9 o'clock. → verb noun
- My **bedroom** is upstairs. → verb noun
- Let's **listen** to this CD. → verb noun
- Sanjar and Tolib **watch** TV. → verb noun
- They **swim** in a lake. → verb noun
- I always feed my **hamster**. → verb noun

Prepared by DINORA

CHECK YOUR KNOWLEDGE (Bilimingizni sinab ko'ring)

Can you write down a vegetable and fruit:

- | | Vegetable | Fruit |
|----------------------------------|-----------|-------|
| 1) Beginning with the letter «P» | | |
| 2) Beginning with the letter «B» | | |
| 3) Beginning with the letter «M» | | |
| 4) Beginning with the letter «C» | | |
| 5) Beginning with the letter «A» | | |



Dono AHMEDOVA

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

CAN YOU FIND THE MISSING LETTERS?

- Animal
- Season
- Fruit
- Vegetable
- Toy
- Color
- Family
- Job
- Food
- Cloth
- Week day
- Number
- Dish
- School thing

<input type="checkbox"/> k	itte	<input type="checkbox"/> n
<input type="checkbox"/>	utum	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/>	rap	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/>	otat	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/>	atll	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/>	rang	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/>	othe	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/>	rtis	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/>	hees	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/>	love	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/>	rida	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/>	welv	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/>	etll	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/>	enci	<input type="checkbox"/>

Zarina KARIMOVA, English teacher of school №8 in Qiziltepa district, Navoiy region

DO YOU KNOW THIS...? (Bilasizmi...?)

Do you know kangaroos can not walk backwards.



Painter: YOQUBBEK



The rabbits and parrots can see what is behind them without turning their heads.

Do you know that potato, the delicious and favorite veggie of children is the staple food in many countries and is the most cultivated vegetable in the world.



Hand and feet have more than half of the bones in the human.

Mohira YO'LDOSHEVA

O'ZBEKISTONIM

Yurtboshim yo'lidan yurdik og'ishmay,
Yuksalish yo'lida hech kimdan qolmay.
Ildam qadam qo'ydik bu yo'lida tolmay,
Yoshlar ulg'aymoqda sog'lom, bilimdon,
Ulug' yosh muborak, hur O'zbekiston!

Millatlar yashaydi tinch, xurram va shod,
Inoqlik tufayli mahalla obod.
Bilimga intilar har bir yosh avlod
E'zoz, ehtiromda senda har inson,
Ulug' yosh muborak, hur O'zbekiston!

Sportchi yoshlarning hamisha ilg'or,
Ijodkor yoshlarda bordir iqtidor.
Yurakka to'ladi quvonch, iftixor,
Senga tan bermoqda hattoki, jahon,
Ulug' yosh muborak, hur O'zbekiston!

Yurtim, yagonamsan, betakrorimsan,
Qayerda bo'lmayin, yurak qo'rimsan.
Sensan quvonganim, iftixorimsan,
Barqaror tinchlikda yashaymiz har on,
To'ylaring muborak, hur O'zbekiston!

Lolaxon QIRG'IZOVA,
Andijon pedagogika kollejining
2-bosqich o'quvchisi

ODOBNING BOSHI SALOM

Bahs ketardi shu zamon,
Lola, Anvar va Omon.
— Odobning boshi nima? —
Javob topilmas hamon.

Lola dedi: — Bu — hurmat,
Omon aytadi: — Izzat.
Odobning boshi shu-da,
Barchaga qilish xizmat.

Anvar so'zlar: — Gaplarning
To'g'riku-ya, begumon.
Lekin to'g'ri javobni,
Men topdim hozir, shu on.



Aytay savol javobin,
Javob — bir og'iz kalom.
Buni barcha biladi,
Odobning boshi — salom!

Shahzoda ABDURAHMONOVA,
Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi
6-umumta'lim maktabining 8-«V» sinf o'quvchisi

BAYROG'ING HILPIRASIN

Tinch yurtim, ozod yurtim,
Yigirma besh yoshdasan.
Mustaqil, obod yurtim,
Qarochiqda, boshdasan.

Har tarafda favvora,
Sening madhingni aytsin.
Mayin shamollar esib,
Bayrog'ing hilpiratsin.

Mana, ko'rkam binolar,
Qad ko'targan yurtimda.
Sen aks etib turibsan,
Porlagan ko'zlarimda.

Erklikni, erkinlikni,
Sen baxsh etding elimga.
Quvonchni ham shodlikni,
Sen madh etding dilimga.

Mahliyo SHODIYEVA,
Jizzax shahridagi 8-umumta'lim
maktabining 5-sinf o'quvchisi

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Xudoyberdi TO'XTABOYEV, O'zbekiston xalq yozuvchisi

Bechora o'yjonisi, avval bozorga boraylik, sabzini sotaylik, ana undan keyin istaganingcha no'xat sho'rva olib beraman, deb zorlanib borayotibdi. Voy, voy, qiziq manzarani ko'ring. Bir bola yaxshigina pul qilay deb, to'rtta tovuqni qo'tiqqlab borayotgan ekan. Bexosdan tovuqlardan birini qochirib yuboribdi. Endi esa ularni sotolmay, yig'lab yuribdi.

Mana, sholi va uzumni ko'p ekadigan Nursuq qishloqlari ortda qolib, nihoyat, Yaypan deb ataladigan katta bozorga ham yetib keldik. Bu bozorga kam kelganman. Bir-ikki marta bobojonim bilan eshagida yonidan o'tganman, xolos. Lekin bu yerda tomosha qilsang, arziydigan narsalar ko'p ekan. Bozorga kiraverishda eshak bozori bor ekan. Voy, bularning hangrashini! Sal nariorqqa o'tishingiz bilan Yaypanning tomosha qilsang arziydigan ajoyibotlari bor ekan. Paranji yopingan, boshiga o'g'ilchasining to'nchasini shundoq-qina tashlab olgan onalar, qalami ro'mol o'rab, yuzlarini berkitib olgan buvilar. Non sotayotgan qizlar, no'xatsho'rakni qog'ozga o'rab berayotgan opalar... Negadir, men hammasini ko'rgim keladi. Tiki-lib-tiki-lib qarayversam, deymen. Sal nariorqqa o'tishimiz bilan endi idish-tovoq, laganlar, piyolalar, yerda to'nkarib qo'yilgan rangdor kosalalar, oz-ozdan xaltachada sotilayotgan o'rik va mayizlar... Qiziq, hammasidan bitta yegim bor-u qo'l uzatgani botin olmayman. Keyin kumush laganni eshakka almashtirib olaylik, degan xayol bilan o'zimni tinchitaman.

— Non o'g'risini ushla! — deb baqirib yubordi bir odam. Ham-

ma ovoz kelgan tomonga qaradi. Mendan salgina kattaroq bola to'rt hatlab kelib, savat to'la nonni ko'tarib qochsa bo'ladimi?! Bechoraning orqasidan yugurayotganlarning ko'pligini aytmaysizmi? O'g'ri bola nonni tishlab-tishlab, qochib borayapti. Bechorani yerga bosishdi,



bosishdi-yu, lekin non yeyishdan to'xtamaydi. Baribir tepki yeyapti, kaltak yeyapti, non chaynashni to'xtatmayapti.

— Angrayma, — baland ovoz bilan baqirdi akam, — bu yerda bunaqa voqealar har soatda bo'ladi. Qo'ltig'ingdagi kumush laganni mahkamroq bos, bo'lmasa, buni ham yulib ketishadi.

Endi navbati bilan tunuka bozoriga o'tdik. Pechkalar, karnaylar, choynaklar, laganlar-u, likopchalar... Faqat odam yo'q ekan bu yerda. Ustalarining bolg'asidan chiqayotgan chaqir-chuqur ovozlardan naq qulog'im bitay deb qoldi. Oltita tunuka pechkani bir-birining ustiga qo'yib, xaridor kutayotgan bir kishi oldida to'xtadik. O'g'ay akam xurjundagi yal-yal yonib turgan kumush laganni olib, soqolining yarmi oq, yarmi qora xo'mrayibroq qaray-

digan bir ustaga qarattidi.

— Bu nima? — shoshmay so'radi xo'mraygan odam.

— Kumush lagan, — dedi akam.

— Nega ko'tarib yuribsan?

— Sotamiz.

— Sotamiz, nega sotasizlar? Bu juda qimmat match-ku. Tag'in o'g'irlab kelgan bo'lmanglar. Qani bu yoqqa ber-chi.

Katta akam qo'rqib ketdi shekilli, «Yo'q, qo'limda turganida ko'ravering, enam duch kelgan odamga berma, degan», — dedi.

— Enang juda zo'r ekan-ku.

— Ha, zo'r!

— Xo'sh, buni sotib nima qilasizlar?

— Eshak olamiz.

— Eshak?! — yana bir marta ayt, yoki chala eshitdimmi-kan? Eshak de-yapsanmi, deya u odam bir bizga, bir yal-yal yonib turgan kumush laganga qaraydi.

— O'g'illarim, yaxshi bola ekansizlar. Bahosi bir otga teng bo'lgan bu matohni ko'z-

ko'z qilib, ko'tarib yurmanglar. Milit-sionerlar ko'rsa, qo'llaringdan tortib olib, sizlarni besh-o'n kunga qamab qo'yishadi. Ey, eshityapsanmi, qo'y bozoridan narida mis bozori bor. O'sha yerda bir qo'li yo'q Qo'zivo'y aka degan odam o'tiradi. Uning ismi Qo'zivo'y-u o'zi qo'chqordan ham zo'r. Urushdan kelgan, halol odam. Turg'un bobo yubordi, deb aytinglar. Urushdan o'lmay kelgani uchun yaxshi-yomonning farqiga borib, hammaga yaxshilik qilsam, deydi.

Shu payt qiziq bo'ldi. To'satdan otishma boshlanib ketsa bo'ladimi?! Hammayoqdan miltiqning, to'pponchalarning ovozi eshityapti.

— Qo'rboshilar!

Odamlar har tomonga o'zini ura boshladi. Qiziq... To'polon, ur-yiqit, shovqin-suron qanday shiddat bilan boshlangan bo'lsa, ana shunday

shiddat bilan yana bosildi-qoldi.

Bugun biz eshak sotib olish o'rni-ga to'satdan bo'ladigan qiziq vo-qealarni tomosha qilgani kelganga o'xshaymiz. Eski amirkon kalish kiygan, boshiga paranji yopingan bir barvasta odamni ikki milit-sioner qo'riqlab qayoqqadir olib ketyapti. Qiziq, paranji yopingan odam ham, to'pponcha ushlab borayotgan mil-litsionerlar ham bir ishni qoyil qil-gandek, mag'rur qadam tashlab boryapti.

— Olomon, xaloyiq, yo'lni bo'shat!

Mana, xotin qiyofali bosqinchi qo'lga tushdi. Endi otuvga hukm bo'ladi, — degan gapni baralla ovoz bilan aytib ham boryapti.

Xuddi shu paytda:

— Yo, Pirim!!! — degan dahshat-li ovoz atrofini larzaga solgandek bo'ldi. Haligi mag'rur ketayotgan kishi uzun qo'llarini keng yozib, milit-sionerlarning yelkasiga shun-day kuch bilan tashlandiki, becho-ra milit-sionerlar baqadek yerga yopishib qoldi. Shu payt haligi paranji yopingan barvasta odam bozorning bir chetidagi baland de-vorga o'g'ri mushukdek bir sakrab chiqdi-yu, shaytondek yo'q bo'ldi-qo'ydi.

Xayriyat, mis bozordagi chap qo'li yo'q amakini topdik. Salom beruvdik, tuzukroq alik olmay shun-day bir xo'mrayib qaradiki, nigohi ich-ichimni teshib o'tganday bo'ldi. Kumush laganni qo'lga olib, aylantirib ko'ra boshladi.

— Qayerliksizlar? — deb so'rab qoldi to'satdan.

— Tagob qishlog'idanmiz, — javob qaytardi akam.

— Bu laganni sizlarga kim berdi?

— Robiya enam berdi, — dedi akam shoshilib.

— Robiya enam kim bo'ladi?

— Erka ellikboshi boboning xotini bo'ladi, — dedim dadillik bilan.

Ana shu gaplardan keyin, bir qo'li yo'q amaki bizga avvalgidan ham xunukroq bir-ikki qarab qo'ydi.

(Davomi bor)



BIZ HECH KIMDAN KAM EMASMIZ

Xabaringiz bor, 5-21-avgust kunlari barcha sport ixlosmandlarining diqqat-e'tibori Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan XXXI yozgi Olimpiya o'yinlariga qaratildi. Ahamiyatlisi, ushbu nufuzli sport bayramida o'zbek sportchilari ham hech kimdan kam emasligini amalda isbotlab, ko'plab sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritdi.


YASHAVOR, HASANBOY!

Ana shunday o'yinlarning birida hamyurtimiz Hasanboy Do'stmatov vazni 49 kilogrammgacha bo'lgan bokschilar orasida meksikalik Xoselito Velaskesni, Qozog'iston vakili Birjan Jakipovni, AQSHlik Niko Migel Xernandesni yengib, finalga chiqdi. Oltin medal uchun kechgan hal qiluvchi bahsda sportchimiz kolumbiyalik Yuberxen Xerney Martinesni mag'lubiyatga uchratib, yuksak g'alabani qo'lga kiritdi.

– Ushbu Olimpiya o'yinlarini barcha yurtdoshlarim qatori men ham hayajon bilan kuzatib boraman. Hamyurtlarimizdan birinchilardan bo'lib oltin medalni qo'lga kiritib, shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy egallagan sportchi aynan bizning tumandan ekanligini bilganimda, yuragim orziqib ketdi. Quvonch ko'zyoshlarimni tiyolmadim. Ushbu daqiqalarni ta'riflab bo'ladimi?! – deydi Andijon viloyatining Buloqboshi tumandagi 5-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Gulnora Umarova.

Shukrulla G'ULOMOV

O'tgan hafta okean ortidan ajoyib xushxabar oldik. Og'ir atletika bo'yicha vazni 105 kg bo'lgan polvonlar o'rtasidagi bellashuvlarda mahoratli sportchimiz Ruslan Nuruddinov barcha raqiblarini ortda qoldirib, yozgi Olimpiya o'yinlari g'olibi degan sharafli nomga sazovor bo'ldi.



RUSLAN EKORD O'RNATDI

Quvonarlisi, atletimiz shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarilish bilan birga, 2008-yil Pekin Olimpiadasida o'rnatilgan rekordni yangilashga muvaffaq bo'ldi.

– To'g'risini aytsam, ushbu nufuzli musobaqaga ustozlarim bilan birga jiddiy hozirlik ko'rgan edik. Shukurki, qilgan mehnatlarimiz besamar ketmadi va Prezidentimiz, xalqimiz ishonchini oqladim. Ushbu g'alaba sizlarniki, barchangizniki, – deydi Ruslan.

Shuningdek, Olimpiadaning boks bo'yicha bellashuvlari ham keskin va murosasiz tarzda o'tdi. Ayniqsa, charm qo'lqop ustalarimizning bu galgi ishtiroki muxlis-u mutaxassislarda katta taassurot qoldirdi.

10 nafar bokschimizdan 7 nafari turli darajadagi Olimpiya o'yinlari medallarini qo'lga kiritishi so'zimiz isbotidir.

Quvonarlisi, mustaqil O'zbekistonimiz tarixida bu yilgi Olimpiya o'yinlaridagi sportchilarimiz ishtiroki eng muvaffaqiyatlisi sifatida tarix zarvaraqalaridan joy egalladi.

S.TURSINOV

8 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan shaxmatchilar o'rtasida kechgan mazkur bellashuvda oltin medalga yaqin o'g'il-qiz shveysaracha tizimida yetti turda o'zaro bahslashdilar.

8 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar bahslarida poytaxtlik shaxmatchilardan Shamsiddin Sayid Usmon 1-, Abdulla Jo'rayev 2-, Saidnazar Ne'matjonov esa 3-o'rinni egalladi.

Poytaxtlik sportchilardan biri Umarxon Faxridinxo'jayev 7 ochko bilan 10 yoshgacha bo'lgan

POYTAXTLIKLAR G'OLIB

Toshkent shahrida shaxmat bo'yicha Respublika chempionatiga saralash musobaqasi bo'lib o'tdi.

lik shaxmatchilar ustun kelishdi. Jumladan, Abdulfariz Abdumalikov 1-o'rinni egalladi. Kamronbek Qoraboyev va Bobur Boboxo'jayev keyingi o'rinlarni zabt etishdi.

shaxmatchilar o'rtasida birinchilardan bo'ldi. Foziljon Buzrukxo'jayev 5,5 ochko bilan 2-, Farg'ona vakili Nozima Dilmurodova 4,5 ochko bilan 3-o'ringa loyiq topildi.

12-16 yoshli shaxmatchilar bahsida ham poytaxtlik shaxmatchilar ustun kelishdi. Jumladan, Abdulfariz Abdumalikov 1-o'rinni egalladi. Kamronbek Qoraboyev va Bobur Boboxo'jayev keyingi o'rinlarni

ZAFAR MUBORAK, BOKSCHILAR!

Navoiy viloyatining Konimex tumanidagi BO'SMda hozirgi kunda sportning badiiy gimnastika, boks, voleybol, dzyudo, futbol, basketbol, stol tennis, gandbol va shaxmat turlari bo'yicha 542 nafar o'quvchi jalb qilingan. Sportchilar ichida Respublika va xalqaro musobaqalar g'olib va sovrindorlari ko'plab topiladi.

Joriy yilning 27-31-iyul kunlari boks bo'yicha «Sog'lom ona va bola yili» va Mustaqilligimizning 25 yilligiga bag'ishlangan «Go'zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O'zbekistonim!» shiori ostida 1998 – 1999-, 2000 – 2001-, 2002 – 2003-yillarda tug'ilgan o'smirlar va yoshlar o'rtasida tumanda Respublika ochiq

turniri bo'lib o'tdi. Yurtimiz sport maktablaridan 90 nafarga yaqin charm qo'lqop ustalari ishtirok etgan musobaqaning final bosqichida 36 kg vaznda Jamshid G'afurov, 40 kg vaznda Nurlan Yermaxanov, 66 kg vaznda Nariman Andaqulovlar birinchilikni qo'lga kiritdi. 52 kg vaznda esa Konimex tumani BO'SM tarbiyalanuvchisi Irbabay Mirzayev g'alaba qozondi. 56 kg vaznda ringga chiqqan Nurjan Serikov barcha

raqiblaridan ustun keldi. 57 kg vazn toifasida Samarqand jamoasining faol va kuchli yoshlaridan biri S. Yusupovni mag'lubiyatga uchratgan umidli sportchilardan biri Umirzak Achilov final bosqichida ustun ekanligini namoyish etdi. Behzod Qobilov 60 kg vaznda abjirligini ko'rsatdi.


Nihoyat, bellashuv natijalari e'lon

qilindi. Musobaqa natijalariga ko'ra, Konimex tumani o'smirlari 7 ta vazn toifasida 1-o'rinni egalladi. Yosh bokschilar erishgan g'alaba nafaqat muarabbaylar, balki navoiyliklar g'alabasi, desak mubolag'a bo'lmas. Zafar muborak, bokschilar!

Nozima JAVHAROVA



«SHONLI SANA» TOPQIRLIK MASHQLARI



CHAYNVORD: 1. Poytaxtimizda bunyod etilgan ona Vatanimizning bosh maydoni. 2. Bolalar tashkiloti. 3. Toshkentdagi xalqaro anjumanlar saroyi. 4. Erkin iqtisodiy hudud maqomini olgan viloyat.

«UNUTILMAS SANALAR»

Quyida ta'riflari bayon etilgan yillarni shakl-

dagi harfli xonadan boshlab raqamlar bilan yozish orqali mashqni bajaring. **A.** O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi e'lon qilingan yil. **B.** Urganchda «Avesto»ning 2700 yilligiga bag'ishlangan memoral ochilgan sana. **D.** O'zbekiston YUNESKOga a'zolikka qabul qilingan yil. **E.** O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan sana. **F.** «Bolajon»

telekanali faoliyatini boshlagan yil. **G.** Termiz shahrining 2500 yilligi nishonlangan sana. **H.** Navoiy shahrida maktab o'quvchilarining «Umid nihollari» sport musobaqalari o'tkazilgan yil. **I.** Qamchiq dovoni orqali o'tuvchi «Angren-Pop» temir yo'li foydalanishga topshirilgan sana.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

HAYDOVCHISIZ AVTOBUS

Aziz bolajonlar!
Bugun sizlarga yangi ixtiro – haydovchisiz yuradigan avtobus haqida so'zlab bermoqchimiz.

Barcha qulayliklarga ega bo'lgan mazkur avtobus qatnovi Niderlandiya shahrida yo'lga qo'yildi. «Mercedes-Benz» kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan bu transport avtonom boshqaruv tizimi bilan jihozlangan.

«City Pilot» deb nomlangan avtonom boshqaruv tizimi ko'plab uzatkichlar, kameralar va GPS moduli yordamida ishlaydi. «Mercedes»da avtopilot avtobusni har bir santimetrgacha aniqlikda boshqara oladi. U svetofo signalari va yo'lidagi to'siqlarni anglay oladi hamda yo'lovchilarning chiqish va tushish joylarida mustaqil to'xtaydi. Avtopilot ishlaydigan maskimal tezlik soatiga 70 kilometrni tashkil qiladi.



Avtobus salonida futuristik o'rindiqlar, shipda katta axborot displeyi, chiptalarni o'qiydigan innovatsion qurilma va smartfonlarni simsiz quvvatlagichlar joylashtirilgan. Salon uchta hududga bo'lingan bo'lib, birinchi hudud «xizmat ko'rsatuvchi» deb ataladi. Ikkinchi hudud avtobus o'rtasida joylashgan bo'lib, u qisqa masofalarga boradigan yo'lovchilar uchun xizmat qiladi. Avtobusning orqa qismida joylashgan uchinchi hudud dam olish hamda shaharni tomosha qilib ketuvchi yo'lovchilar uchun mo'ljallangan.

Internet materiallari asosida
Manzura UBAYDULLAYEVA tayyorladi

TOPISHMOQLAR



Ona-bola dasturxoniga,
Choy ichishsin, deb o'tirar.
Agar kelmay qolishsami,
Choy ichmasdan o'tirishar.



Oyimda bor, opanda yo'q,
Yerda bor-u ko'kda yo'q!

Abdulaziz SAYDULLAYEV,
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi
236-umumta'lim maktabining
5-«V» sinf o'quvchisi

Pazanda qizga!



Kerakli masalliq: 250 gramm sariyog', 300 gramm smetana, 300 gramm sedana, 300 – 500 gramm un, 2 choyqoshiq qavartma.

Tayyorlanishi: Dastavval xona haroratida yumshatilgan sariyog' qirg'ichdan o'tkaziladi. So'ngra un qo'shilib, uvalanadi. Alohida idishda smetana qavartma qo'shib aralashtiriladi. Smetanal aralashmaga avval sedana qo'shib, so'ngra sariyog' unga aralashtirilib, yumshoq xamir qoriladi.

Xamir uch zuvalaga bo'linib, 1 soat davomida muzlatgichga qo'yiladi. Zuvalalardan birini 2 sm qalinlikda yoyib, burrada yordamida avval tasmachalar, so'ngra ulardan to'rtburchak shakli kesib olinadi va bantik shakli yasaladi. 200° haroratda qizdirilgan gaz pechida past olovda 15 – 20 daqiqa davomida pishiriladi. Qolganlari ham shu tarzda pishirib olinadi. Pishgan shirinligimiz ustiga qand upasi sepiladi.

Yoqimli ishtaha!



SEDANALI BAYRAM SHIRINLIGI

NARGIZA tayyorladi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruz ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Dilshod KENJAYEV,
Svetlana INOMOVA,
Bahodir G'ANIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruz JALILOVA,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Dilorom HOTAMOVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Manzilimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi – 26389
Buyurtma – S 6794

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi. Topshirish vaqti – 18:00
Topshirildi – 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08